

10

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI



2025 yil “ 29 ” 08

Ro'yxatga olindi: № BD 60211000-1.29

MUSIQIY-NAZARIY TIZIMLAR

FANINING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 200 000 – San'at va gumanitar fanlar

Ta'lim sohasi: 210 000 – San'at

Ta'lim yo'nalishi: 60211000 – San'atshunoslik: musiqashunoslik

TOSHKENT - 2025

Fan / modul kodi MNA1204	O'quv yili 2025-2026	Semestr 6-7	ECTS-Kreditlar 4	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 2	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Musiqiy-nazariy tizimlar	60	60	120
2.	<p style="text-align: center;">I. Fanning mazmuni</p> <p>Musiqiy-nazariy tizimlar fani o'z mazmun mohiyatiga ko'ra musiqiy ta'lim va umuman musiqashunoslik ilmi borasida azaldan ustuvor ahamiyatga molik fan xisoblanib kelgan.</p> <p>Musiqiy-nazariy tizimlar fanining amaliy, nazariy, va ijodiy tarmoqlarining mushtarakligi va to'liq shakllardagi munosabatlari xam yagona tizimdir. Aynan shu tamoyillarga ko'ra MNTning O'zbekiston davlat konservatoriyasi uchun rejalashtirilayotgan o'quv dasturi tom ma'noda milliy va umminsoniy qadriyatlar ustuvorligiga asoslanadi</p> <p>Tizim iborasi, birinchi navbatda, muayyan ilmning falsafiy va nazariy muvofiqligini e'tiborda tutadi. Musiqiy ilmlarning falsafiy va nazariy mushtarakligidagi tizimi Qadimiy Yunon tamaddunida o'zining yuksak taraqqiyot darajasiga yetdi. Shunga ko'ra, MNTni fan darajasida o'zlashtirish ko'pincha ana shu nuqtadan sarxisob etiladi. Qadim Yunon mutafakkirlari Fisog'urs ((Pifagor), Aflotun (Platon), Arastu (Aristotel), Aristoksenus (Aristoksen) o'z davri ilmiy qarashlarining asosiy ustunlari xisoblanadi.</p> <p>Fanning vazifasi – uzluksiz ravishda XXI-asrga qadar musiqashunoslikning rivojlanish davrlarida qo'llanilgan musiqiy nazariy tizimlarnio'rgatish hamda ular asosida yangicha tafakkurni rivojlantirishdan iborandir.</p> <p>Musiqiy san'at haqidagi barcha ilmiy-nazariy tushunchalarni umumlashtirish.</p> <p>Yuqori darajadagi bo'lajak mutaxassisni tizimli tafakkur yuritishga o'rgatishning eng perspektiv usullaridan biriga yo'naltirish.</p> <p style="text-align: center;">II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p style="text-align: center;">II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p style="text-align: center;">1-mavzu: Kirish. Fanning maqsad va vazifalari</p> <p>Kirish qismida bayon etilgan tamoyillardan kelib chiqqan xolda mazkur fan dasturiga o'tishdan oldin Qadim Yunon, Vizantiya va Rim mutafakkirlarining musiqiy-nazariy qarashlarining ustuvor asoslari – parda, nav, shakllar. Yunon nazariyasida</p>			

tetraxord-arabchada jins, lotinchada “modus”, slavyan tillarida “lad”, metr-vazn iyqo va tarkibot tamoyillari tahlil etilgan. Ta’kidlash lozimki, Yunon, Rim va Sharq musiqasi bir ovozlik mafkura bo‘lgan. Va musiqiy muvofiqlik umumlashtirilib yunonchada “garmoniya”, musiqa, arabchada alxon, turkchada kuy deyilgan. Endigi umumiy ma’nodagi musiqa, parda, soz va kuy, ohang tushunchalariga ma’nodosh sifatida.

Keyinchalik ularning Sharq, xususan, O‘rta Osiyo xamda o‘zbek musiqasi manbalari misollarida va Yevropa Uyg‘onish davri namunalarida Farobiy, Xorazmiy, Ibn Sinolarning arab tilidagi risolalariga qiyosiy ravishda taxlil etish odatga kirgan. Shu munosabat bilan rus tilidagi adabiyotlarda qadimiy “garmoniya” va o‘rta asrlar “modus” atamaları o‘rniga forscha parda, maqom va slavyan tillarida “lad” iborasi rasm bo‘la boshlandi.

2-mavzu: Qadimgi yunon musiqa nazariyalari

Qadim yunon musiqa nazariyasining ustuvor tomoyillari va ularning Yevropa xamda Sharq musiqiy asoslari bilan umumiylik xususiyatlari: bir ovozlik (monodik) nazariy musiqiy ilm ustuvorligi, parda, ritm va tarkibot asoslarining qonuniyatlari musiqiy asarlar tuzilishida yetakchi axamiyat kasb etadi. Shu munosabat bilan xarf musiqiy yozuvlarning (musiqiy pardalar va harf bilan belgilash) ilk ko‘rinishlari rivojlana boshlanadi.

Tetraxordlar, jins ta’limoti va o‘rta Osiyoda parda-lad nazariyasi va uning monodik musiqa taraqqiyotidagi o‘rni. Jins (tetraxordlar) ta’limoti va ularning asosiy navlari: diatonika, xromatika, engarmonika. Nazariya va amaliyot muvofiqligi. Keyinchalik bu ta’limotning Sharqda “maqom” nazariyasida davom topishi.

Ritm ta’limoti. Birlamchi ritm birliklari va ulardan murakkab vazn o‘lchamlari kelib chiqishi o‘zbek klassik musiqasi – maqomlarda musiqiy va she’riy ritm muvofiqligi. Satr, misra va mustaqil musiqiy doira (davr)lar shakllanishi.

3-mavzu: O‘rta asr musiqa nazariyalari

O‘rta asr Sharq musiqa nazariyasini yangi bosqichga ko‘tarilishi. Maqom-parda lad tizimida jins va jam ta’limotlari. Forobiy, Ibn Sino va Safiuddin Urmaviy asarlarida asosiy va yarim tayanch (parda va nimparda)larning funktsiya sifatida shakllanishi. Ularning o‘rtasida o‘tkinchi (miyon) pardalar joylashuvi. Nota yozuvlari va amaldagi misollar tahlilida jinslarni ikki tarafdin (osti va ustidan) kengayib borishi xisobiga jamlar tizimini tarkib topishi. Nota yozuvlari va amaldagi misollar tahlilida

Mustaqil vokal (aytim, ashula) va cholg‘u navlarini qaror topishi va musiqiy mafkurning ilmiy-nazariy asoslarini yangi bosqichlarga ko‘tarilishi.

4-mavzu: Sharq uyg'onish davrining musiqiy nazariyalari. Ikkinchi uyg'onish. O'rta Osiyo musiqashunosligining buyuk ustunlari

IX-XII asrlarda Yaqin va O'rta Sharqda Islom Uyg'onishini yuksalishi va arab tilini asosiy ifoda vositasi sifatida qaror topishi va shu munosabat bilan anik riyoziy (matematik) fanlar, jumladan, musiqiy ilmining keskin rivojlanishining yuzaga kelishi. Ayniqsa, O'rta Sharqda va birinchi navbatda O'zbekiston xududlarining madaniy-ma'rifiy maarkazlarida aniq fanlar va ular qatorida musiqiy ilmini taraqqiy topishi.

Ulug'lar qatorida Muxammad Xorazmiy (780-850), Abu Nosir Forobiy (873 - 950), Abu Ali ibn Sino (980-1037) kabi donishmandlar Markaziy Osiyo madaniyati, jumladan, shu zaminlarning musiqiy qadriyatlarini, xususan musiqiy nazariyalar fanining riyoziy ilm sifatida yangi bosqichga ko'tarilishiga qatta xissa qo'shganliklari.

Musiqashunoslikni aniq matematik fan sifatida shakllanishi. Forobiy (873-950), Ibn Sino (980-1037) Xorazmiy asarlarida nazariy musiqa san'ati va amaliy musiqa san'ati tushunchalarining shakllanishi. Ular ijodida qadim yunon qarashlarini yangi bosqichda rivojlanishi. Farobiyning Katta musiqa kitobiyangi hisob nuqtasi. Jinslar nazariyasi. Tabiiy (diatonika), toblangan (xromatika) va o'xshash (engarmonik) jins toifalari. Jins tarkibidagi vusta (tertsiya) va mujannab (sekunda) turlari.

Safiuddin Urmaviy (Bag'dod 1216-1294), Faxriddin Roziy (Urganch 1150-1209), Muhammad Nishopuriy ilmi advor ta'limotini shakllanishi. Ilmi advor (nazariy) va fanni musiqiy (amaliy) musiqiy ta'limotlari.

Ilmi advorning maqomot (jins, jam va murakkabotlar) umumsharq ta'limoti sifatida qaror topishi. 12 jam maqomlar tizimi va ularning asl nomlari: Rost, Ushshoq, Navo, Busalik, Xusayniy, Hijoz, Rahoviy, Zangula, Iroq, Isfahon, Zirafkand, Buzruk.

6 ovoz: Navro'z, Salmak, Gardoniya, Gavasht, Moya. 24 sho'ba (jins)lar: Dugoh, Segoh, Chorgoh, Panjgoh, Ashiro, Navro'zi Arab, Mohur, Navro'zi Xoro, Bayot, Xisor, Nuxuft, Uzzol, Avj, Nayriz, Mubarqa, Raqb, Sabo, Xumoyun, Zobul, Isfaxon, Xuzi, Nixovand, Javziy, Muhayyar.

5-mavzu: Temuriylar davri musiqashunosligining buyuk namoyondalari

Abdulqodir Marog'iy (1353-1435), Abdurahmon Jomiy (1414-1491), Alisher Navoiy (1441-1501). Samarqand va Xirotni buyuk markazlar sifatida shuxrat qozonishi. Musiqiy ilm hamda ijod borasida "Turk manfaatini" oldingi qatorga chiqishi. Ilmi advor ta'limotida arab-fors-turkiy uchtilik istiloh qaror topishi.

Klassik musiqada Navbati murattab, kulliyot kabi yangi mumtoz shakllar yuksalishi va ularni keyingi Buxoro, Xorazm va Farg'ona-Toshkent maqomlar tizimida

yuksalishi. Navbati murattab turkumlarining ustuvor asoslari – Qavl, G‘azal, Tarona, Furu‘doshlarning musiqiy nav va shakllar sifatidagi uslubiy xususiyatlari hamda ularning urf odatlarini keyingi klassik musiqa turkumlarida Buxoro va Xorazm hamda Farg‘ona-Toshkent maqomlarida davom etishi.

6-mavzu: XVI-XVIII asrlarda Buxoroni Samarqand va Xirot mumtoz musiqiy urf-odatlarining davomchisi sifatida shuxrat qozonishi

Najmiddin Kavkabi (1470-1533) va Darvish Ali Changiylarning (XVI asrning ikkinchi yarmi – 20-yillari) risolalarida Abdulqodir Marog‘iy, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy musiqiy merosini yangi sharoitlarda rivoj topishi.

Musiqiyshunoslikda amaliy ilmlar (G.Farmer iborasi) ta’limotini yuksalishi. Shashmaqom ta’limoti ustoz-shogird (amaliy musiqashunoslik) maktabining mahsuloti. Ustoz-shogird maktabining uslubiy xususiyatlari. Amaliyot – ijod nazariyot-ilmiy asos mushtarakligi.

7-mavzu: XIX asrda Xorazmda ilmi advor ta’limotining ilmiy-amaliy tamoyillarining rivoj topishi

Xorazm Dutor maqomlari. Navba va Olti yarim maqomi navbati murattab tamoyillarining vorisi. Klassik musiqaning yuksalish oqimida nazariy ilmlarga extiyoj oshib borishi. Musiqiyshunoslar Niyozjon Xoji (XVIII ikkinchi yarmi XIX asr 30 yillari) va Paxlavon Niyoz Mirzaboshi (1825-1899) ilmiy-ijodiy faoliyatlari. Xorazm tanbur chizig‘ini ixtiro qilinishi va takomillashuvi.

Muhammad Raximxon Feruz (1846-1910) rahnamoligida Mirzaboshi Komilning o‘g‘li Muhammad Rasul yetakchiligida Xorazm olti yarim maqom turkuminitanbur chizig‘ida notaga yozib olinishi. Musiqashunos tushunchasining ushbu davr musiqiy muhitidagi ma’nosi. Tanbur chizg‘ilari nota yozuvining ustuvor tamoyillari. Ustoz-shogird urf-odatlarini tizimida nota matnlarining o‘ziga xoslik jihatlari.

Komil Devoniy (1887-1938) tashabbusi bilan 20-yillarda Alisher Navoiy davri o‘zbek klassik musiqasiga xos bo‘lgan Dutor maqomlari turkumlaridan saqlanib qolgan namunalarni tanbur chizg‘ilari vositasida notaga olinishi. o‘zbek klassik musiqasining tarixiy ildizlarini idroklashda tanbur chizig‘i yozuvlarining manbashunoslik ahamiyati. Jumladan, musiqiy nazariy tizimlarini fan sifatida tarixiy ildizlarini o‘rganishdagi O‘rni.

8-mavzu: XX-asr boshlarida o‘zbekistonda milliy ma’rifatchilar ijodida yangi musiqiy nazariy qarashlar tizimini yuzaga kelishi.

XX-asrning o‘rtalarida o‘zbek klassik musiqasi xususida yangi ilmiy-nazariy tizimlarning yuzaga kelishi

Bekjon Rahmon (1887-1937) va Matyusuf Xarrot (1881-1953)larning Xorazm musiqiy tarixchasi (Moskva 1924), Abdurauf Fitrat (1886-1938)ning o‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi (Samarqand-Toshkent 1927), G‘ulom Zafariy (1888-1941) ning Farg‘ona-Toshkent musiqiy merosiga oid maqolalarini yuzaga kelishi. Bu tadqiqotlarda o‘zbek musiqasining nazariy asoslariga doir masalalarni aks etilishi.

O‘zbek musiqasining ilmiy-nazariy asoslariga oid masalalarni rus olimlari V.A.Uspenskiy (1879-1949), V.A.Belyaev (1888-1968), Ye.E.Romanovskaya (1890-1947), A.A.Semyonov (1873-1958)lar ijodida aks ettirilishi. Bu tadqiqotchilarning milliy ma’rifatchilar ijodi bilan uzviy aloqalari hamda ular ilmiy merosining dolzarbligi va tarixiy ahamiyati.

Sharq musiqasiga ichkari va tashqaridan qarash. Yevropaparastlik qarashlarga tanqidiy yondashuvlarning O‘zbekiston olimlari Yu.Kon (1922-1993), I.R.Rajabov (1927-1985)lar ijodida namoyon bo‘lishi.

Yu.Konning o‘zbek musiqasining lad asoslariga oid qarashlari va ularda yevropaparastlik nazariyasining ustuvor masalalari: tovushqator, tarkibot, funktsional asoslar, lad va kuy tuzilishining ichki munosabatlari.

I.Rajabovning “Shashmaqom” asoslari xususidagi qarashlari. Shashmaqom ta’limotini XIX-asr manbalari risola va musiqiy bayozlarda aks ettirilishi. Maqom manbashunosligini zamonaviy fan sifatidagi muammolari.

9-mavzu: O‘zbek milliy musiqa merosiga yangi munosabatlar

XXI asrning so‘ngi o‘nyillikda yuz berayotgan madaniy-ma’rifiy o‘zgarishlar qatorida milliy qadriyatlarga nisbatan bo‘layotgan tub o‘zgarishlarni alohida ta’kidlash lozim. Bu katta jarayonning siyosiy, g‘oyaviy asoslari sifatida 3-7 iyulda Toshkentda bo‘lib o‘tgan “Yangi O‘zbekiston: taraqqiyot, innovatsiya va ma’rifat” Xalqaro sherikchilik tashabbuslari haftaligi anjumani qayd etish zarur.

Haftalikning ikkinchi kuni “O‘zbekiston madaniy merosi – yangi renessans asosi” deb nomlandi. Bu shiorning tayanch tushunchalariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, meros va renessans iboralari ustuvor ahamiyatga ega ekanligi sezilib turadi.

Darhaqiqat O‘rta Osiyo xududidagi eng yirik hamda madaniy jihatdan salohiyati davlato‘zbekiston, bugungi kunda jahon ahlining e’tibor markazida.

Ushbu kun bosh ma’ruzasi bo‘lgan O‘zbekiston madaniyat vazirining chiqishida milliy meros yangi taraqqiyot poydevori sifatida ko‘rilib, nafis san’atlar, xususan klassik musiqa sohasida bu zaminning tarixiy yutuqlari alohida qayd etildi. Bevosita musiqa

sohasida O'zbekistonda o'tkazilayotgan xalqaro festival va ilmiy anjumanlarga katta e'tibor berildi.

Bu masala o'zbek musiqasining istiqboli, jumladan musiqiy nazariyalar tizimi fanini rivoji uchun muhim bo'lganligi sababli uning ustuvor tamoyillariga alohida to'xtalib o'tish lozim. Musiqa va uning ilmiy-nazariy asosi Farobiydan-Fitratgacha, XXI asrda bu borada jonbozlik ko'rsatayotgan olimlarimiz ijodiyoti ahamiyatlidir. Ular qatorida Otanazar Matyoqubovning o'zbek musiqasining nazariy asoslariga oido'zbek, rus va ingliz tillarida nashr etilgan tadqiqotlarini ham ko'rsatish mumkin.

O'zbek klassik musiqasi tushunchasini qayta tiklanishi

1937-yil qatag'onida va keyingi davrlar siyosiy oqimlari ta'sirida A.Fitrat, V.Uspenskiy va boshqa olimlar ijodida qaror topgan "O'zbek klassik musiqasi" iborasini milliy musiqa merosimizning ustuvor tushunchasi sifatida qayta tiklanishi. Bu mavzuda O.Matyoqubovning o'zbek, rus va ingliz tillaridagi tadqiqotlarining yuzaga kelishi. Bu tushunchani Temuriylar uyg'onish davri va bevosita A.Navoiy ijodida aks ettirilishi.

Ushbu davrning buyuk musiqiyshunosi Abdulqodir Marog'iy (1353-1435)ning ta'limotida parda (maqomot), iyqo' (usul, vazn) va shakl masalalar. Maqomot va iyqo' hamda shakl nazariyalarini Samarqand va Xirotda musiqiy urf odatlarida aks ettirilishi. Bu muhitda yuzaga kelgan kichik (tasnif) va katta shakllarning (navbati murattab) muayyan navlarini yuzaga kelishi. Bu jarayonning ustuvor tamoyillarini o'zbek musiqasining keyingi navlari Buxoro Shashmaqomi, Xorazm Dutor maqomlari va Olti Yarim maqomi hamda Farg'ona-Toshkent maqomlari kabi tarixiy shakllarda o'z ifodasini topishi.

10-mavzu: Musiqiy nazariyalar tizimi faninio'zbek musiqashunosligining zamonaviy ehtiyojlarining taraqqiyoti nuqtai nazaridan rivojlanib borishi

O'zbek musiqa san'ati zamon va makon nuqtai nazaridan doimiy ravishda rivojlanib boruvchi fan. Xattoki uning oxirgi o'n yillikda yuz berayotgan taraqqiyotini kuzatadigan bo'lsak, kelajakka intilgan ilmiy va ijodiy jarayonlar e'tiborni jalb etadi. Bir tarafdin, musiqiy merosimizning qadimiy qatlamlari har qachongidan ham baland e'tibor topayotganligi.

Eng muhimi, ana shu murakkab va serqirra jarayon tegishli ilmiy asosda yuz berayotganligi. Ana shu jihatdan XX-asrda yuz bergan bir taraflamalik ilmiy qarashlar yoki sun'iy qarama-qarshiliklar barham topib, monodiya va garmoniya, polifoniya, sharq va g'arb musiqiy tafakkurlari O'rtasidagi yasama ziddiyatlar chetga chiqib

borayotgani nazarga tashlanadi. Bu borada musiqiy nazariyalar tizimining ahamiyati naqadar muhimligini hayotning o‘zi namoyish etmoqda.

Ana shu jarayonning markazidagi milliy meros va yangi renessans g‘oyasining baland ko‘tarilishi hamda o‘zbek tilini davlat tili sifatida e‘zozlanishi alohida diqqatga sazovor. Mazkur jihatdan 5 tomlik o‘zbek musiqasi fundamental tadqiqoti hamda uning musiqiy nazariyalar tizimi fan dasturini o‘zbek tilida e‘lon qilinayotgani ham Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot, innovatsiya va ma‘rifat dasturining amaldagi ifodasi sifatida ko‘rish mumkin.

III. Amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

(Laboratoriya ishlari), (Seminar mashg‘ulotlari), (Kurs ishi), (Mustaqil ta‘lim) O‘quv rejada ko‘rsatilgan turi (nomi) bo‘yicha yoziladi)

Amaliy mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Qadim Yunon, Vizantiya va Rim mutafakkirlarining musiqiy-nazariy qarashlarining ustuvor asoslari – parada, nav, shakllar.
2. Mustaqil vokal (aytim, ashula) va cholg‘u navlarini qaror topishi va musiqiy mafkuraning ilmiy-nazariy asoslarini yangi bosqichlarga ko‘tarilishi.
3. Muxammad Xorazmiy (780-850), Abu Nosir Farobiy (873-950), Abu Ali ibn Sino (980-1037) kabi donishmandlar Markaziy Osiyo madaniyati, xususan musiqiy nazariyalar fanining riyoziy ilm sifatida yangi bosqichga ko‘tarilishiga qatta xissa qo‘shganliklari.
Musiqiyshunoslar Niyozjon Xoji (XVIII ikkinchi yarmi XIX-asr 30-yillari) va Paxlavon Niyoz Mirzaboshi (1825-1899) ilmiy-ijodiy faoliyatlari. Xorazm tanbur chizig‘ini ixtiro qilinishi va takomillashuvi.
4. I.Rajabovning “Shashmaqom” asoslari xususidagi qarashlari.
5. Musiqiy nazariyalar fanining zamonaviy talab va ehtiyojlari.

Amaliy mashg‘ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o‘qituvchi tomonidan o‘tkazilishi zarur. Mashg‘ulotlarda faol va interaktiv usullar yordamida o‘tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo‘llanilishi maqsadga muvofiq.

Seminar uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Qadimgi yunon musiqa nazariyalari. O‘rta asr musiqa nazariyalari.
2. O‘rta Osiyo musiqashunosligining buyuk ustunlari. Temuriylar davri musiqashunosligining buyuk namoyondalari.

3. Najmiddin Kavkabiy va Darvish Ali Changiylarning risolalarida Abdulqodir Marog'iy, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy musiqiy merosini yangi sharoitlarda rivoj topishi.
4. Shashmaqom ta'limotini XIX-asr manbalari risola va musiqiy bayozlarda aks ettirilishi. Maqom manbashunosligini zamonaviy fan sifatidagi muammolari.
5. XX asr boshlarida milliy ma'rifatchilar, shuningdek XX asr 2-yarmi o'zbek musiqashunosligining yangi avlodi ilmiy-nazariy qarashlari.

IV. Mustaqil ta'lim tashkil etishning shakl va mazmuni

Mustaqil ta'limni tashkil etishda mazkur fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish mumkin:

- darslik, o'quv qo'llanma, maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha fanlar boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash;
- yangi musiqiy texnik vositalar va texnologiyalarni o'rganish;
- talabning ilmiy tekshirish (ijodiy) ishlarini (TITI) bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari yoki mavzularini chuqur o'rganish;
- faol o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari (ishbilar o'yinlar, diskussiyalar, seminarlar, kollokviumlar va b.).

Mustaqil ta'limni tashkil etishning mazmuni axborot-ta'lim resurslaridan, ta'lim muassasasida mavjud kutubxona, fonoteka va videoteka jamg'armasidan, o'quv laboratoriyalari, teleradiokompaniya kanallari va kontsert zallaridan unumli foydalanishdan, bajarilgan ishlarning tahlilini bayon etishdan iboratdir. Mazkur fanning xususiyatlaridan kelib chiqib kasbiy mahoratni rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan vazifalarni maqsadli amalga oshirish ham nazarda tutiladi.

V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Qadim yunon musiqa nazariyasining ustuvor tomoyillari va ularning Yevropa xamda Sharq musiqiy asoslari bilan umumiylik xususiyatlari. O'zbek an'anaviy musiqasi: mavqei va janrlar tarkibi
2. Tetraxordlar, jins ta'limoti va O'rta Osiyoda parda-lad nazariyasi va uning monodik musiqa taraqqiyotidagi o'rni. Sof folklor namunalari shakli, tuzilishi (marosim janrlari)
3. O'rta asr Sharq musiqa nazariyasini yangi bosqichga kotarilishi. Maqom-parda

	<p>lad tizimida jins va jam ta'limotlari. Sof folklor namunalarining shakli, tuzilishi (nomarosim janrlari).</p> <ol style="list-style-type: none"> 4. Klassik musiqada Navbati murattab, kulliyot kabi yangi mumtoz shakllar yuksalishi va ularni keyingi Buxoro, Xorazm va Farg'ona-Toshkent maqomlar tizimida yuksalishi. O'zbek mumtoz musiqasining cholg'u va ashula yo'llarining shakli 5. Jumaev A. Najmiddin Kavkabi Buxari: poet, muzikant, uchyoniy XV-XVI vv. Tashkent – 2016. V va VI-bobining tahlili. Mumtoz ashula va mumtoz yalla janrlarining shakli 6. Xolopov Yu., Kirillina T., Kyuregyan T. Lijov G., Pospelova R., Senova V. Muzikalno-teoreticheskie sistemi. M., 2006. Nazariy taxlil. 7. Abdurauf Fitrat. O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi. Samarqand-Toshkent 1927. Tadqiqotidagi o'zbek musiqasining nazariy asoslariga doir masalalarni aks etilishi. Katta ashula janrining tuzilishi va shakli 8. O.Matyobovning o'zbek musiqasining nazariy asoslariga oid o'zbek, rus va ingliz tillarida nashr etilgan tadqiqotlarini tahliliy o'rganish. Katta ashula: asosiy ijrochilik maktablari 9. O'zbek musiqasining ilmiy-nazariy asoslariga oid masalalarni rus olimlari V.A.Uspenskiy, V.A.Belyaev, Ye.E.Romanovskaya, A.A.Semyonovlar ijodida aks ettirilishi. Bu tadqiqotchilarning milliy ma'rifatchilar ijodi bilan uzviy aloqalari hamda ular ilmiy merosining dolzarbligi va tarixiy ahamiyati. 10. Bekjon Rahmon va Matyusuf Xarrotlarning Xorazm musiqiy tarixchasi (Moskva 1924), G'ulom Zafariyning Farg'ona-Toshkent musiqiy merosiga oid maqolalarini yuzaga kelishi. Bu tadqiqotlarda o'zbek musiqasining nazariy asoslariga doir masalalarni aks etilishi. <p>XXI-asrning songi o'nyillikda yuz berayotgan madaniy-ma'rifiy o'zgarishlar. Suvora janrining tuzilishi va shakli.</p> <p>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar, dokladlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.</p>
<p>3.</p>	<p style="text-align: center;">VI. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</p> <p>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> • XXI-asrga qadar musiqashunoslikning rivojlanish davrlarida qo'llanilgan musiqiy-nazariy tizimlarni o'rganish hamda ular asosida yangicha tafakkurga ega bo'lish; • Musiqiy san'at haqidagi barcha ilmiy-nazariy tushunchalarni umumlashtirish; • Turli tarixiy davrlarda yaratilgan musiqa san'atiga oid bo'lgan yozma

	<p>manbalarimizdagi ilmiy-nazariy atamalarni tushunish va tahlil eta bilish; XIX-asr oxiri, XX-asrda yaratilgan muhim musiqiy nazariy adabiyotlarni Yangi O'zbekistonning taraqqiyot, innovatsiya va ma'rifat dasturining amaldagi ifodasi sifatida ko'rish va mustaqil tahlil etish.</p>
<p>4.</p>	<p style="text-align: center;">VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
<p>5.</p>	<p style="text-align: center;">VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'lao'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.</p> <p style="text-align: center;">Oraliq va yakuniy nazorat uchun talablar .</p> <p>Talabalar bilimni nazorat qilish o'quv rejaga muvofiq belgilangan. Oraliq va Yakuniy nazorat 5, 6 semestrlarda o'tkaziladi.</p> <p>5-semestr</p> <p>Oraliq nazorati – reja asosida o'tilgan 3 ta mavzu doirasida test ko'rinishida yoki uchta savoldan iborat yozma ish shaklida o'tkaziladi.</p> <p>Yakuniy nazorat – reja asosida o'tilgan barcha mavzular doirasida tuzilgan savollarga og'zaki tarzda javob berish (biletlar uchta savoldan iborat bo'ladi va qo'shimcha ikkita savol berilishi mumkin).</p> <p>6-semestr</p> <p>Oraliq nazorat reja asosida o'tilgan 3 ta mavzu doirasida test ko'rinishida yoki uchta savoldan iborat yozma ish shaklida o'tkaziladi.</p> <p>Yakuniy nazorat: reja asosida o'tilgan barcha mavzular doirasida tuzilgan savollarga og'zaki tarzda javob berish (biletlar uchta savoldan iborat bo'ladi va qo'shimcha ikkita savol berilishi mumkin).</p>

6.	<p style="text-align: center;">Asosiy adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Кон Ю.Г. Некоторые вопросы ладового строения узбекской народной песни и его гармонизации. – Tashkent, 2023. https://unilibrary.uz/literature/460599 2. Kon Yu.G. O‘zbek xalq qo‘shilari lad tuzilishining ayrim masalalari. – Toshkent, 2023. 3. Matyakubov O. Uzbekskaya klassicheskaya muzika. V dvux tomax. – Tashkent, 2015. (1-t. https://unilibrary.uz/literature/717856 (2-t. https://unilibrary.uz/literature/717859) 4. Matyakubov O. Uzbek musiqasi. 5 tomlik. – Toshkent, 2023 (nashrda). 5. Matyakubov O. Farabi ob osnovax muziki Vostoka. – Toshkent, 1986. https://unilibrary.uz/monograph/574701 6. Matyakubov O. Maqomot. – Toshkent, 2004. https://unilibrary.uz/literature/251466 7. Matyakubov O., Boltaev R., Aminov H., Xorazm tanbur chizig‘i. – Toshkent, 2010. https://unilibrary.uz/literature/61466 8. Matyakubov O. Buxarskiy Shashmakom. – Tashkent, 2011. <p style="text-align: center;">Qo‘shimcha adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Mirziyoev Sh.M. Madaniyat va san‘at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta‘sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. PF-6000-son. 2020. 26-may. 2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent, 2017. 3. Mirziyoev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida. PQ-4038.2018. 28-noyabr. 4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2022. 416 b. 5. Абдурашидов А. Танбур и его функция в изучении ладовой системы Шашмакома. Автореферат. – Ташкент, 1991. 6. Aminov X. Musiqiy bayozlar. // Shashmaqom saboqlari. №2 – Toshkent, 2005. https://unilibrary.uz/literature/129561 7. Angelika Jung/ Der Shashmaqam aus Buchara uberliefert von den alten Meisternnotiert von Ari Babakhanov. – Berlin, 2010. 8. Асафьев Б.В. Музыкальная форма как процесс. Книга 2. Интонация. –

- Москва, 1954. <https://unilibrary.uz/literature/222257>
9. Арановский М.Г. Музыкальный текст. Структура и свойства. – Москва, 1998.
 10. Галицкая С.П. Теоретические вопросы монодии. – Ташкент, 1981. <https://unilibrary.uz/literature/507261>
 11. Грубер Р.И. Всеобщая история музыки. – Москва, 1964. <https://unilibrary.uz/literature/571236>
 12. Даукеева С. Философские взгляды Фараби. – Алма-Ата, 2007. <https://unilibrary.uz/monograph/9931>
 13. Джами Абдурахман. Трактат о музыке. – Ташкент, 1960. <https://unilibrary.uz/literature/53171>
 14. Джумаев А. К проблеме эстетических учений о макомате. // Вопросы эстетики, истории и теории монодии. – Ташкент, 1987.
 15. Джумаев А. Культурная политика Узбекистана: истоки и современность тенденции. // Культурная политика Центральной Азии в переходной период. – Алма-Ата, 2003.
 16. Джумаев А. Шашмаком на грани веков. Историко-культурный и музыкальный феномен. // Шашмаком сабоқлари. – Тошкент, 2005.
 13. Лосев А.Ф. Исторический смысл эстетического мировоззрения Рихарда Вагнера. Основной вопрос философии музыки. // Философия. Мифология. Культура. Серия. Мыслители XX века. – Москва, 1991. <https://unilibrary.uz/literature/277961>
 18. Низамов А. Суфизм в контексте музыкальной культуры народов Центральной Азии. – Душанбе, 2000.
 19. Мазель Л.А. Проблемы классической гармонии. – Москва, 1976. <https://unilibrary.uz/literature/516090>
 20. Matyakubov O. Og'zaki an'anadagi professional musiqa asoslariga kirish. – Toshkent, 1983. <https://unilibrary.uz/literature/303468>
 21. Медушевский В.В. О методе музыкознания. // Методологические проблемы музыкознания. – Москва, 1987.
 22. Mullo Bekjon Raxmon o'g'li, Muhammad Yusuf Devon-zoda Xorazm musiqiy tarixchasi. – Moskva, 1925.
 23. Кон Ю.Г. К вопросу о понятии музыкального языка. // От Люлли до наших дней. – Москва, 1967.
 24. Котляревский И.А. Музыкально-теоретические системы европейского искусствознания. Методика изучения и классификации. – Киев, 1983
 25. Nizamov A. Tarix va nazariyai Shashmaqom. – Dushanbe, 2006.
 26. Семёнов А. Средневековый трактат по музыке Дервиш Али. – Ташкент,

	<p>1946. https://unilibrary.uz/literature/377996</p> <p>27. Скребков С.С. Художественные принципы музыкальных стилей. – Москва, 1973. https://unilibrary.uz/literature/132606</p> <p>28. Rajabov I. Maqomlar masalasiga doir. – Toshkent, 1963; https://unilibrary.uz/literature/314834</p> <p>29. Rajabov I. Maqomlar. – Toshkent, 2006. https://unilibrary.uz/monograph/449772</p> <p>30. Холопов Ю.Н. Очерки современной гармонии. – Москва, 1974. https://unilibrary.uz/literature/129257</p> <p>31. Холопов Ю., Кириллина Т., Кюрегян Т. Лижов Г., Поспелова Р., Сенова В. Музыкально-теоретические системы. – Москва, 2006. https://unilibrary.uz/literature/223003</p> <p style="text-align: center;">Axborot manbalari</p> <p>1. http://turkology.tk/library/354</p> <p>2. http://www.cultinfo.ru</p>
7.	<p>Fan dasturi Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2025 yil «__» _____ dagi ____ - sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.</p>
8.	<p>Fan/modul uchun mas'ul: Matyakubov O.R. – “O‘zbek musiqasi tarixi” kafedrası professor, san’atshunoslik fanlari nomzodi.</p>
9.	<p>Taqrizchilar: X.T.Qurbonov – “O‘zbek musiqasi tarixi” kafedrası dotsent v.b. I.M.Mirtolipova – “Musıqa nazariyasi” kafedrası mudiri, PhD</p>

